

**SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/31.10.2024.Ped.187.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

RAXIMOVA SHOIRA ADILBEKOVNA

**TALABA-YOSHLARDA AXLOQIY XUSUSIYATLARNI TARKIB
TOPTIRISHDA UNSURULMA'OLiy KAYKOVUSNING MA'NAVIY
MEROSIDAN FOYDALANISHNING METODIK IMKONIYATLARI**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (falsafa)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical science**

Raximova Shoira Adilbekovna

Talaba-yoshlarda axloqiy xususiyatlarni tarkib toptirishda Unsurulma’oliy
Kaykovusning ma’naviy merosidan foydalanishning metodik imkoniyatlari 3

Рахимова Шоира Адильбековна

Методические возможности использования духовного наследия
Унсурулмаоли Кайковуса в формировании нравственных качеств
учащихся 21

Rakhimova Shoira Adilbekovna

Methodological possibilities of using the spiritual heritage
of Unsurulmaoli Kaykovus in the formation of moral qualities of students..... 41

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of publications 45

**SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/31.10.2024.Ped.187.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

RAXIMOVA SHOIRA ADILBEKOVNA

**TALABA-YOSHLARDA AXLOQIY XUSUSIYATLARNI TARKIB
TOPTIRISHDA UNSURULMA'OLiy KAYKOVUSNING MA'NAVIY
MEROSIDAN FOYDALANISHNING METODIK IMKONIYATLARI**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (falsafa)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PHD/Ped6169 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdpi.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Xajiyeva Maksuda Sultanovna**
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar: **Mustafayev Shomurod Normo'minovich**
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent


Rajabov To'xtasin Ibodovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot: **Termiz davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/31.10.2024.Ped.187.01 Ilmiy kengashning 2025-yil «15» noyabr soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140100, Samarqand shahar, Spitamen shoh ko'chasi 166-uy.) Tel.: (99895) 826-82-12; e-mail: devonxona@samdpi.uz.

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat pedagogika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin 20493 - raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140100, Samarqand shahar, Spitamen shoh ko'chasi 166-uy.) Tel.: (99895) 826-82-12;.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «28» oktabr kuni tarqatildi.
(2025-yil «28» oktabr dagi 7 - raqamli reestr bayonnomasi).



A.A. Ibragimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

E.A. Abdumannotov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sh.Sh. Negmatova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori, professor



KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon ijtimoiy-madaniy hayotida yuz berayotgan globallashuv jarayoni mamlakatlar oldiga barqaror milliy-ma'naviy taraqqiyot yo'lini belgilash, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, shu jumladan ta'lim sohasida ham chuqur islohotlarni amalga oshirishni dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga qo'yimoqda. Jahonda ta'lim taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "... bilimning mustahkam poydevoriga ega bo'lish, yosh avlodning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, ta'lim olishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish, ma'naviy-axloqiy kamol toptirish, ularda vatanga daxldorlik tuyg'usini hamda ajdodlar ma'naviy me'rosiga sodiqlik xislatlarini shakllantirish" masalasi dolzarb vazifa sifatida qayd etilib, ta'limning zamonaviy mazmuni va sifatini oshirishga qaratilgan xalqaro hujjatlar, xususan, Incheon deklaratsiyasi (Incheon declaration 2015), Jahon ta'lim forumi (World Education Forum, 2000), BMTning "Ming yillik deklaratsiyasi" (UN "Millennium Declaration", 2000) konvensiyalarida zamonaviy ta'lim yondashuvlari asosida ajdodlar ilmiy-ma'naviy merosini o'rganish orqali talaba-yoshlarda axloqiy xususiyatlarni tarkib toptirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Dunyoda ko'plab ilmiy-tadqiqot markazlari, ta'lim muassasalarida innovatsion yondashuvlar asosida talaba-yoshlarda axloqiy xususiyatlarni tarkib toptirishda allomalarning ma'naviy merosidan foydalanish, zamonaviy dunyo uchun zarur bo'lgan muayyan ko'nikmalarni egallashga yo'naltirilgan bilim berish mexanizmlarini takomillashtirish, allomalar, xususan, "Unsurulma'oliy Kaykovusning ma'naviy-ilmiy merosini o'rganishni kafolotlovchi innovatsion-integrativ usullarni qo'llashning pedagogik jihatlarini aniqlash hamda talaba-yoshlarda axloqiy xususiyatlarni takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dunyoning yetakchi ta'lim muassasalarida, jumladan Xalqaro psixologiya fanlari ittifoqi – IUPsyS (International Union of Psychological Science)", "butunjahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO) tomonidan Kornel universiteti va Xalqaro biznes maktabi (INSEAD) bilan hamkorlikda chop etiladigan Global innovatsiyalar indeksi (GII) hisobotida dunyo davlatlarining innovatsion salohiyati va ma'naviy yuksalish ko'rsatkichlarini oshirish bo'yicha yillik reytingida yoshlarda axloqiy xususiyatlarni kamol toptirish masalalariga e'tibor qaratish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda".

Mamlakatimizda xalq an'analarida aks etgan milliy ta'lim-tarbiyani yangi sifat darajasida amalga oshirishda, bo'lajak pedagog mutaxassislarni tayyorlash jarayonida o'rta asr mutafakkirlari ijodidan foydalanish muammosining zamonaviy nazariy asoslarini yaratish zarurati tug'iladi. Har bir jamiyat o'z taraqqiyotida ziyolilarning pedagogik tafakkurini, tarbiyaviy tajribasini o'rganib, uni zamon talablari asosida takomillashtirdi, undan foydalandi. Bu borada Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "... yoshlarni jismoniy va ma'naviy barkamol insonlar etib tarbiyalash biz uchun g'oyat muhim vazifa bo'lib qolmoqda". "O'rta asr mutafakkirlari pedagogik g'oyalarining shakllanishi va rivojlanishi tarixi va

ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish bo'yicha tadqiqotlarda falsafa, tarix, sotsiologiya, pedagogika fanlari sohasida katta yutuqlarga erishildi. Bu borada, mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur zamonaviy bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, ularda axloqiy xususiyatlarni kamol toptirish masalasini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limda talabalarning ilmiy faoliyatini rag'batlantirish tizimini modernizatsiya qilish, talabalarda innovatsion kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik taklif va tavsiyalar ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda".

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi O'RQ-406-sonli "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-sonli "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonlari, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-sonli "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2024 yil 21 iyundagi PQ-231-sonli "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2022-yil 10-fevraldagi PQ-126-sonli "Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-sonli "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda mavzuga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni metodik, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini rivojlantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi.

Unsurulma'oliy Kaykovusning "Qobusnoma" asarida ilgari surilgan ma'naviy-axloqiy tarbiya masalasi va tarixiy-pedagogikaga oid qarashlari, ijtimoiy-psixologik qarashlari mamlakatimiz olimlaridan Dolimov S., Hamrayeva O., Hashimov K., Muhamedova M., Nishonova S., Ochil S., Umarova Y., Xamdamiy B. va boshqa shu kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

MDH davlatlari doirasida Axmedova Z., Bartold V., Bertels E., Braginskiy S., Braun E., Devonaqulov A., Kodirov K., Krimskiy A., Ripka Ya., Saydullayeva G., Xodjayev K. va boshqa shu kabi olimlarning tadqiqotlarida Unsurulma'oliy Kaykovusning "Qobusnoma" asari g'oyalarining axloqiy va pedagogik-didaktik xususiyatlari tadqiq qilingan.

Mazkur muammo yuzasidan xorijlik Brayer A., Winfield D., Claud S.,

Peacock A., Yildiz S., Readfort S., Fray R., Black P, Wiliam D., va boshqa shu kabi olimlar asar g'oyalarning u yoki bu tomonlarini o'rgangan bo'lib, falsafa va pedagogika fanida mazkur muammoga doir ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga boy materiallar to'plangan. Ammo, yuqorida sanab o'tilgan tadqiqotlarda talaba yoshlarda axloqiy xususiyatlarni tarkib toptirishda "Qobusnoma" asarida ilgari surilgan ma'naviy-axloqiy va pedagogik g'oyalardan foydalanishning metodik imkoniyati to'liq ochib berilmagan. Shu sababdan biz tadqiqot ishimiz mavzusini "Talaba-yoshlarda axloqiy xususiyatlarini tarkib toptirishda Unsurulma'oliy Kaykovusning ma'naviy merosidan foydalanishning metodik imkoniyatlari" tarzida tanladik

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Ushbu dissertatsiya "Urganch davlat universitetini 2017-2030-yillarda rivojlantirish dasturi"ning 2.4-bandiga asosan va Urganch davlat universiteti ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq "Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va ilmiy salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi" doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi talaba-yoshlarda axloqiy xususiyatlarni tarkib toptirishda Unsurulma'oliy Kaykovusning ma'naviy merosidan foydalanishning metodik imkoniyatlarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talaba-yoshlarda axloqiy xususiyatlarni tarkib toptirishda Kaykovusning ma'naviy merosidan foydalanishning didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

Kaykovusning ma'naviy merosi asosida talaba-yoshlarda axloqiy xususiyatlarni rivojlantirish modelini takomillashtirish;

Kaykovusning ma'naviy merosi asosida talaba-yoshlarda axloqiy xususiyatlarni rivojlantirish jarayonini takomillashtirish;

Kaykovusning ma'naviy merosi asosida talaba-yoshlarda axloqiy xususiyatlarni rivojlantirish samaradorligini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Unsurulma'oliy Kaykovus ma'naviy merosi asosida talaba-yoshlar ma'naviy-axloqiy xususiyatlarini tarkib toptirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Namangan davlat pedagogika instituti, Buxoro davlat pedagogika instituti, Urganch davlat universitetining 578 nafar talabalari ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini talaba-yoshlarda axloqiy xususiyatlarni tarkib toptirishda Unsurulma'oliy Kaykovusning ma'naviy merosidan foydalanishning mazmuni, shakl, metod, usul va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, tarixiy-tahliliy yondashuv, taqqoslash, modellashtirish, kuzatish, suhbat va so'rovnoma, eksperiment, test va diagnostika, ma'lumotlarni qayta ishlash, korrelatsion tahlil shuningdek, olingan natijalarni matematik statistik qilish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat:

falsafiy fanlarni o'qitishda Kaykovus ma'naviy merosidan foydalanishning didaktik imkoniyatlari meros mazmunini zamonaviy ta'lim ta'sirchanlik darajasiga g'oyaviy jihatdan toifalash va shaxs psixologiyasining differensiyalashgan ijtimoiy

individual xususiyatlariga mos faollik monitoringi sifatini yuritish asosida aniqlangan;

talaba-yoshlarda axloqiy xususiyatlarni rivojlantirish modeli ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish imkoniyatlarini kengaytirishga yo'naltirilgan Kaykovusning ta'lim va ilm olishga doir g'oyalarning ustuvor mazmunini yoritib berishga qaratilgan rivojlantiruvchi topshiriqlarni bosqichma-bosqich kiritish asosida takomillashtirilgan;

talaba-yoshlarda axloqiy xususiyatlarni rivojlantirish jarayoni Kaykovus merosidan foydalanishga yo'naltirilgan yakka, juftlikda va jamoa bo'lib ishlashga mo'ljallangan ta'limiy mashqlarni axborotli muhitda ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishga erishish asosida takomillashtirilgan.

talaba-yoshlarda axloqiy xususiyatlarni rivojlantirish samaradorligi "Qobusnoma"dagi asosiy axloqiy nasihatlarini tushunish, izohlash, g'oyalarni ijtimoiy muammolar bilan bog'lash asosida o'quv jarayonini loyihalash, ta'lim maqsadlariga muvofiqlashtirish, "G'oyalar daraxti", "Matbuot anjumani" usullari, debat, rolli o'yinlar vositasida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Talaba-yoshlarda axloqiy xususiyatlarni shakllantirish uchun Unsurulma'oliy Kaykovusning ma'naviy merosiga asoslangan innovatsion pedagogik metod va usullar ishlab chiqildi. Ushbu metodikalardan ta'lim jarayoni amaliyotida qo'llash mumkin;

Talaba-yoshlarda axloqiy fazilatlarni shakllantirish maqsadida Kaykovus merosidan foydalanishga oid tarbiya dasturi va metodik qo'llanma ishlab chiqildi. Ushbu qo'llanma o'qituvchilar, tarbiyachilar va pedagoglar uchun amaliy yo'riqnoma sifatida xizmat qiladi;

Kaykovus merosiga asoslangan pedagogik metodikalar ta'lim-tarbiya jarayonida sinovdan o'tkazilib, ularning talaba-yoshlarda axloqiy xususiyatlarni rivojlantirishdagi samaradorligi eksperiment natijalari orqali ilmiy asosda tasdiqlangan;

Dissertatsiya natijalariga asoslangan pedagogik yondashuv va usullar oliy ta'lim muassasalari, kollejlar va umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish uchun tavsiya etilgan.

Talaba-yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini yuksaltirishga xizmat qiluvchi "Unsurulma'oliy Kaykovusning ma'naviy merosidan talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyasida foydalanishning pedagogik modeli" ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilganligi, nazariy ma'lumotlarni dalillashda aniq ilmiy manbalarga tayangan holda ish olib borilgani, materiallar ilmiy nuqtayi nazardan sinalgan metodlar asosida tavsif etilgani, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, dissertatsiyada Kaykovusning ma'naviy va axloqiy qarashlari zamonaviy pedagogika nazariyasi asosida tizimli o'rganilib, ilmiy tadqiqot doirasiga kiritildi. Talaba-yoshlarda axloqiy fazilatlarni rivojlantirishga

oid zamonaviy ta'lim va tarbiya nazariyalari bilan Kaykovus merosini uyg'unlashtirish yondashuvi nazariy jihatdan asoslandi. Kaykovusning axloqiy-tarbiyaviy g'oyalari asosida talaba-yoshlarda axloqiy fazilatlarni rivojlantirishga oid yangi pedagogik model yaratildi. Kaykovusning tarixiy ma'naviy merosi va uning bugungi jamiyat uchun dolzarb ahamiyati ochib berilib, zamonaviy ta'lim va tarbiya metodikasini boyituvchi yangi yondashuv va metodik usullar taklif qilindi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyatini talaba-yoshlarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish uchun Kaykovusning g'oyalari asosida ishlab chiqilgan pedagogik metod va usullar ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish uchun samarali amaliy yechimlar sifatida taklif etilganligi, dissertatsiyada ishlab chiqilgan usullar va metodik yondashuvlar oliy o'quv yurtlari, kollej va maktablarda ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish uchun tavsiya etilganligi, dissertatsiya natijalari asosida Kaykovusning axloqiy merosidan foydalanish bo'yicha o'qituvchilar va tarbiyachilar uchun amaliy qo'llanmalar ishlab chiqilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Talaba-yoshlarda axloqiy xususiyatlarni tarkib toptirishda Unsurulma'oliy Kaykovusning ma'naviy merosidan foydalanishning metodik imkoniyatlari bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

falsafiy fanlarni o'qitishda Kaykovus ma'naviy merosidan foydalanishning didaktik imkoniyatlari meros mazmunini zamonaviy ta'lim ta'sirchanlik darajasiga g'oyaviy jihatdan toifalash va shaxs psixologiyasining differensiyalashgan ijtimoiy individual xususiyatlariga mos faollik monitoringi sifatini yuritish asosida aniqlashtirilganligiga oid tavsiyalar "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" nomli darslik mazmuniga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 22-dekabrda 537-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 537234-raqamli guvohnoma). Natijada, Unsurulma'oliy Kaykovus ma'naviy-axloqiy qarashlari hozirgi kunda barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan bilimlarning keng yoyilishiga zamin yaratgan;

talaba-yoshlarda axloqiy xususiyatlarni rivojlantirish modeli ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish imkoniyatlarini kengaytirishga yo'naltirilgan Kaykovusning ta'lim va ilm olishga doir g'oyalarining ustuvor mazmunini yoritib berishga qaratilgan rivojlantiruvchi topshiriqlarni bosqichma-bosqich kiritish asosida takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalardan "Umumiy pedagogika va psixologiya" nomli darslik mazmunini boyitishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 6-sentabrda 337-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 333-178-raqamli guvohnoma). Natijada, islom dunyosining buyuk mutafakkiri Unsurulma'oliy Kaykovusning ilmiy-ma'naviy merosi, ijodiy faoliyati va shaxsiyati bilan bog'liq xulosalar yoshlar orasida ma'naviyat va axloq masalalarini keng targ'ib qilish hamda ilmiy-madaniy jamoatchilikni keng xabardor etish imkonini bergan;

talaba-yoshlarda axloqiy xususiyatlarni rivojlantirish jarayoni Kaykovus merosidan foydalanishga yo'naltirilgan yakka, juftlikda va jamoa bo'lib ishlashga mo'ljallangan ta'limiy mashqlarni axborotli muhitda ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishga erishish asosida takomillashtirilganligiga oid tavsiyalardan "Umumiy pedagogika va psixologiya" nomli darslik mazmunini boyitishda

foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 6-sentabrdagi 337-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan 333-178-raqamli guvohnoma). Natijada, Kaykovusning ma’naviy merosi asosida talaba-yoshlarda axloqiy xususiyatlarni rivojlantirish modelining tizimligi, barqarorligi va amaliy samaradorligi ta’minlangan.

talaba-yoshlarda axloqiy xususiyatlarni rivojlantirish samaradorligi “Qobusnoma”dagi asosiy axloqiy nasihatlarini tushunish, izohlash, g‘oyalarni ijtimoiy muammolar bilan bog‘lash asosida o‘quv jarayonini loyihalash, ta’lim maqsadlariga muvofiqlashtirish, “G‘oyalar daraxti”, “Matbuot anjumani” usullari, debat, rolli o‘yinlar vositasida takomillashtirilganligiga doir tavsiyalardan “Umumiy pedagogika va psixologiya” nomli darslik mazmunini boyitishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 6-sentabrdagi 337-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan 333-178-raqamli guvohnoma). Natijada, ssenariyning nazariy-metodologik asoslari takomillashtirilib, teletomoshabinlar tafakkurida Unsurulma’oliy Kaykovus ma’naviy-axloqiy tarbiya nazariyasining ahamiyati to‘g‘risida tasavvur hosil qilishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni 2 ta xalqaro, 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma’ruza ko‘rinishida bayon etilgan va aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 26 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 2 ta darslik, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola, jumladan 4 tasi xorijiy, 9 tasi jurnallarda nashr etilgan. Shuningdek, 5 ta xalqaro, 6 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda maqola va tezislar chop etilgan.

Dissertatsiya ishining hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovadan iborat bo‘lib, ishning umumiy hajmi 150 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ishonchligi, ishning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Unsurulma’oliy Kaykovusning pedagogik va falsafiy g‘oyalarni tadqiq qilishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan bo‘lib, ushbu bob Unsurulma’oliy Kaykovus milliy axloqiy merosini o‘rganishning tarixiy-retrospektiv jihatlari, Unsurulma’oliy Kaykovusning ta’lim va tarbiyaga oid qarashlarining o‘ziga xos xususiyatlari, Unsurulma’oliy Kaykovusning “Qobusnoma” asarining falsafiy-pedagogik ahamiyati deb nomlangan paragraflarni o‘z ichiga oladi.

Bobda Unsurulma'oliy Kaykovus davrining ijtimoiy-madaniy hayotini, uning milliy axloqiy merosi, ta'lim va tarbiyaga oid qarashlari, xususan "Qobusnoma" asarining falsafiy-pedagogik ahamiyati kabi masalalar tadqiq qilingan. Unsurulma'oliy Kaykovus yashagan tarixiy davr, uning "Qobusnoma" asarining ilmiy-pedagogik ahamiyati, uni o'rganishning zarurati kabi masalalarga to'xtalib o'tilgan. Bunda bir qator olimlarning masalaga fikrlarini tahlil qilishni joiz topdik. G.R.Saydullayevaning ta'kidlashicha, "Etika, boshqa falsafiy fanlar singari, ko'p asrlar davomida o'ziga xos tushunchalar va kategoriyalar tizimini ishlab chiqdi. Shuning uchun uning shakllanishi va kategoriyaviy apparatini to'ldirishning adekvat manzarasini yaratish uchun uning rivojlanishiga hissa qo'shgan o'tmishdagi alohida mutafakkirlarning dunyoqarashini chuqur va har tomonlama o'rganish ham zarur. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, forszabon xalqlarning mashhur mutafakkiri – Unsurulma'oliy Kaykovus (1020-1083) ning axloqiy qarashlarini o'rganish dolzarb bo'lib, muayyan tarixiy-falsafiy qiziqish uyg'otadi".

Unsurulma'oliy Kaykovusning cheksiz bilimi va dunyoqarashi, o'ziga xos tafakkur va idrok etish tarzi, his-tuyg'ulari "Qobusnoma" kabi ajoyib pedagogik-didaktik asarning yaratilishiga sabab bo'lgan. Asarning har bir bobini bayon qilishda muallif "bolam", "bil", "o'g'lim", "sinab ko'r", "ogoh bo'l", "azizim" kabi iboralarni qo'llaydi. Yaxshi so'z bilan aytilgan bunday yoqimli murojaat va iltimoslar talabalar e'tiborini tortishga, ularning intilishini yanada kuchaytirishga, ishonchini oshirishga hissa qo'shadi. Unsurulma'oliy Kaykovus o'zining ta'limga oid yo'riqnomalarida bu so'zlarni juda qadrlaydi va ularni "Xudoning sovg'asi" deb ataydi. "Kaykovusning "Qobusnoma" asarida ham barkamol inson, yuksak ma'naviyatli shaxs masalalariga alohida ahamiyat berilgan. Kitob insondagi bir qator kerakli bo'lgan xususiyatlar va sifatlarni ochib berishga, ularni tuzatishga qaratilgandir. Shuning uchun ham ushbu asar fors-tojik pedagogikasining qomusi sifatida qariyb to'qqiz asrdan buyon jahon xalqlari e'tiborini qozonib kelmoqda".

"Qobusnoma"dagi jumlar asosan qisqa, aniq va mazmunli bayon qilingan bo'lib, shakl va axloqiy jihatdan inson hayoti qiyofasining turli jihatlaridan, mashhur faylasuflar, podshohlar, olim va mutafakkirlarning xulosalaridan real va hayotiy ma'lumotlar sifatida o'rinli foydalanish nuqtayi nazaridan mantiqiy izchillikka asoslangan. Shuningdek, "Qobusnoma"da muallif xalq maqollarini, hikmatli so'zlarni ko'p o'rinlarda oqilona ishlatishi bilan, asarning yuqori saviyada yozilishiga hissa qo'shgan. Muallif o'z tarbiyaviy fikrlarini qisqa, badiiy va ta'sirchan tarzda yetkazish uchun ana shu usuldan foydalangan.

"Qobusnoma"ning mazmuni inson hayotining turli jabhalarini qamrab olgan bo'lib, har bir yoshdagi kishilar uchun pedagogik maktab va hayotiy tajriba namunasi sifatida e'tirof etilishi mumkin. Tarbiya masalalari mutafakkirning amri, bayoni, nasihati, o'quvchi yoki shogird bilan o'zaro suhbat va muloqoti tarzida berilgan. Binobarin, "Qobusnoma"ni faqat axloqiy asar deb hisoblasak, mutafakkirning buyuk asarini cheklab qo'ygan bo'lamiz. Chunki "Qobusnoma" tarbiya nazariyasi va didaktikasini chuqur, har tomonlama o'rganish imkonini beradi. Ushbu kitobda ta'limning maqsad va mazmuni, pedagogik tushunchalar (shaxsni takomillashtirish, ta'lim, o'qitish, tarbiyalash va boshqalar), aqliy va g'oyaviy-axloqiy dunyoqarash, musiqa va ijro mahorati, estetika, mehnat, hunarmandchilik, jismoniy tarbiya va boshqa sohaga oid ma'lumotlar jamlangan.

Ta'lim-tarbiya jarayoni xususida so'z borar ekan, ushbu jarayonni nazariy tahlil qilish natijasida uning ko'p qirrali va muhim masala ekanligini, hamda barcha davrlarda dolzarb bo'lganligini kuzatishimiz mumkin. Shu jumladan, bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri ham ta'lim va tarbiyaga qaratilganligi fikrimizning isbotidir. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" Qonunida ham ta'lim jarayoniga quyidagicha munosabat bildiriladi. "Ta'lim – ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon".

Unsurulma'oliy Kaykovusning pedagogik g'oyalarini shaxs tarbiyasida qo'llashning ahamiyatini tahlil qilish uni amalga oshirish yo'nalishlarini va bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonini tashkil etishning uslubiy asoslarini belgilashni taqozo etadi. Unsurulma'oliy Kaykovusning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga doir g'oyalari amaliyotda bola shaxsining namoyon bo'lishiga ta'sir qilish imkoniyatini ochadi. Uning asosini bolaning birligini, kognitiv, hissiy va xulq-atvor jihatlarini va uning butun tabiatining ilmiy-nazariy konsepsiyasini tahlil qilish tashkil etadi.

Mutafakkirning asosiy maqsadi insonni baxt-saodat yo'lida kamolotga erishishga undash hamda, ko'ngil xotirjamligini tarbiyalashdan iborat. "Qobusnoma"ning eng oddiy voqeadan ham ma'naviy-axloqiy xulosa chiqarishga, qandaydir hikmatli fikr olishga, insonni xatolardan saqlashga, hayot yo'lga boshlashga harakat qilishi asarning turli fan sohalari tadqiqotchilari, jumladan, faylasuflar, sharqshunoslar, siyosatshunoslar, iqtisodchilar, sotsiologlar va pedagoglar nazariga tushishiga sabab bo'lgan.

Kaykovus ilm olish yo'lga kirgan toliblarga ham yo'llanmalar beradi: hamma vaqt parhezli va qanoatli bo'lish, bekorchilikdan o'zini tiyish, doimo shod-xurram va harakatchan bo'lish, kitob o'qishga berilish, ilm yo'lida qayg'u-hasratga berilmaslik, ilmni yodda saqlash uchun takrorlab borish, yod olish, ilmda haqiqat uchun kurashish, taqlid qilmaslik, doimo o'z yonida kitob va boshqa o'quv qurollarini saqlash, oz so'zlab, ko'p tinglash haqida fikr bildiradi. Shuningdek, ilm yo'lida munozaradan chekinmaslik, lekin uni janjalga aylantirmaslik, isbot va dalillar bilan o'z fikrini bayon qilish zarurligini ta'kidlaydi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"Unsurulma'oliy Kaykovus ta'limoti va uning talaba-yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari"** deb nomlangan bo'lib, unda Unsurulma'oliy Kaykovusning ma'naviy-axloqiy g'oyalaridan foydalanishning oliy ta'lim amaliyotidagi holati, Kaykovusning pedagogik g'oyalari asosida yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, Kaykovus ma'naviy merosini ta'lim jarayoniga joriy etishning metodik texnologiyalari kabi dolzarb masalalar tahlil qilingan.

Axloqiy tarbiyaning dolzarb vazifasi jamiyat a'zolarini axloqiy fazilatlarini yaxlitligini tarbiyalash hamda bu orqali jamiyat barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Axloqiy tarbiya murakkab va qarama-qarshi jarayondir. Jamiyat a'zolariga odob-axloqni singdirish, ularning turli yoshda kattami yoki kichikmi, har bir ishini, nutqini, boshqalar bilan munosabatini hisobga olib, eng adolatli, eng to'g'ri yo'lni

tanlay olishlari oqrali erishiladi. Kishining ma'naviyati ezgulik, aql qarori, ezgu yurak, hayot – ezgu tuyg'u, rahm-shafqat ongli va ongsiz harakatlarda namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, axloqiy fazilatlar o'zining negizida umumiy insoniy va milliy qadriyatlarni birlashtirib, kishilarning ma'naviy madaniyatini amalga oshiradi. Buni xalqning ruhi yuksalib, kamolga yetib, jamiyatning ma'naviy qadriyatlariga e'tibor bera boshlashida, ularni takomillashtirishi va rivojlantirishga kirishishdan anglash mumkin. Shaxslararo munosabatlarning chuqur axloqiy tamoyillarga asoslanishi nafaqat shaxsning ma'naviy yuksalishiga, balki jamiyatning taraqqiy etishiga ham xizmat qiladi. Shu sababdan, axloqiy fazilatlarini jamiyat a'zolari ongiga bog'cha davridan boshlab singdirib borish lozim va har qanday faoliyat albatta axloqiy tamoyillarga asoslanishi kerak.

Tadqiqot muammosini nazariy tushunishdan kelib chiqib, Unsurulma'oliy Kaykovusning pedagogik g'oyalari orqali bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda talabalarning axloqiy, shaxsiy va kasbiy sifatlarini oshirish samaradorligini ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlar quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- o'quv kurslari mazmunini qayta ko'rib chiqish, nazariy va amaliy bazani kengaytirish, ularni chambarchas bog'lash, talabalarni tayyorlash jarayonida ilmiy tadqiqot ma'lumotlari tufayli Unsurulma'oliy Kaykovus g'oyalarining pedagogik salohiyati haqida ma'lumot berish;

- ta'lim jarayonida o'qitishni faollashtirish, mustaqillikni rivojlantirish, bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyalashda Unsurulma'oliy Kaykovusning pedagogik g'oyalariga kognitiv qiziqishni shakllantirish maqsadida talabalarning subyektiv pozitsiyalarini ta'minlash;

- o'quvchining o'quv jarayonida olgan bilimlarining dolzarbligini oshirish maqsadida nazariy va amaliy mashg'ulotlarning o'zaro bog'liqligini ta'minlash;


- o'quv jarayonining turli shakllarida o'quvchilarning sinfdan tashqari faoliyatini tashkil etish.

Yuqorida qayd etilgan shartlar ma'lum bir mantiq bilan qo'llaniladi va o'quvchilarni tarbiyalash jarayonini samarali o'tkazishga xizmat qiluvchi pedagogik vositalar majmuasi orqali amalga oshiriladi.

Mazkur bobda Unsurulma'oliy Kaykovusning pedagogik g'oyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning tarkibiy-mazmun modelini ishlab chiqilgan (1-rasm). "Model" so'zi lotincha "modulus" - o'lcham, namuna, me'yor so'zidan kelib chiqqan va har qanday modellashtirilgan obyektning aqliy tasviri yoki ma'lum tasviri sifatida tushuniladi. Modellashtirish esa muammoni o'rganish shakllari va usullarining ko'p qirraliligi tufayli keng tarqalgan usul hisoblanadi.

Mazkur pedagogik modelning asosiy maqsadi Unsurulma'oliy Kaykovusning pedagogik g'oyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi hamda ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishdan iboratdir.

Mazkur maqsadga erishishda Unsurulma'oliy Kaykovusning pedagogik g'oyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonining umumiy qonuniyatlari va ta'lim-tarbiya yo'nalishining asosiy xususiyatlarini aks ettirish quyidagi tamoyillar asosida amalga oshirildi:



1-rasm. Unsurulma'oliy Kaykovusning ma'naviy merosidan talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyasida foydalanishning pedagogik modeli.

- ilmiylik;
- izchillik;
- nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlik;
- shaxsni ijtimoiylashtirish va insonparvarlashtirish.

Bunda talabalarning axloqiy, shaxsiy va kasbiy fazilatlarini oshirish samaradorligini ta'minlaydigan quyidagi pedagogik shartlar belgilandi:

a) Unsurulma'oliy Kaykovusning tarbiyaviy salohiyati va uning pedagogik g'oyalari haqida ma'lumot berish;

b) talabaning fan pozitsiyalarini ta'minlash;

c) talabaning o'quv jarayonida olgan bilimlarining dolzarbligini oshirish maqsadida nazariy va amaliy mashg'ulotlarning o'zaro bog'liqligi;

d) o'quv jarayonining turli shakllarida talabaning darsdan tashqari faoliyatini tashkil etish.

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash modelining ushbu tarkibiy qismlari nafaqat talabalarning o'z bilim va ko'nikmalarini oshirishga, balki ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlashning ahamiyatini ochib beradi.

Shuningdek, Unsurulma'oliy Kaykovusning pedagogik g'oyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash dasturida taklif etilgan asosiy vazifalardan kelib chiqib, bo'lajak o'qituvchilarning bu yo'nalishdagi faoliyatini quyidagicha ko'rsatish mumkin:

- Unsurulma'oliy Kaykovusning "Qobusnoma" asariga shaxsning umumiy dunyoqarashini takomillashtirishning alohida vositasi sifatida ongli (shaxsiy ahamiyatli) munosabatni shakllantirish;

- "Qobusnoma" milliy madaniy asarini pedagogik faoliyatga samarali tatbiq qilish, bilish faoliyatini shakllantirish va takomillashtirishga xizmat qilishga ishonch hissini uyg'otish;

- Unsurulma'oliy Kaykovusning pedagogik g'oyalarini pedagogik faoliyatning turli shakllarida qo'llash uchun ijodiy munosabatlarni shakllantirish;

- O'rta asr merosi "Qobusnoma"ni o'zlashtirish jarayonida qadriyat munosabatlarini shakllantirish;

- Unsurulma'oliy Kaykovusning pedagogik faoliyat jarayonida o'qituvchilik bilimlaridan foydalanishga tayyorgarlikni shakllantirish kabilar.

Unsurulma'oliy Kaykovusning pedagogik g'oyalarini bo'lajak o'qituvchilarni shaxsiy va kasbiy tarbiyalashda barcha turdagi o'quv va sinfdan tashqari ishlarga, barcha ish shakllariga (mustaqil ish, ijodiy topshiriqlar, portfolio va boshqalar) jalb qilishning belgilangan jarayonida foydalanish, shuningdek, o'z shaxsiyati, o'z salohiyati haqida olingan ma'lumotlar yoshlar bilan ishlashda o'z taqdirini o'zi belgilash zarurligini tushunishga olib keladi.

"Qobusnoma"dagi ta'lim mazmuni (iymon, axloq, aql, mehnat va boshqalar) ta'lim jarayoni oldindan belgilab qo'yilgan darslar doirasida o'zlashtirilishi mumkin. Auditoriyadagi darslar vaqti cheklangan bo'lib, ijodiy faoliyat bilan bog'liq shakllarni qo'llashda ko'p vaqt talab qilinadi, bu esa vaqt bilan ijodiy faoliyat o'rtasida ziddiyatga olib keladi. Ushbu qarama-qarshilikni bartaraf etish uchun turli xil ishonchli pedagogik yondashuvlar mavjudligiga qaramay, bunday shakllarni o'rganish uchun eng mos ish shakli darsdan tashqari mashg'ulotlardir.

Kaykovusning pedagogik g'oyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi hamda ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishdan iboratdir.

Dissertasiyaning uchunchi bobi, **"Oliy ta'limga Unsurulma'oliy Kaykovusning pedagogik g'oyalarini joriy qilish bo'yicha tajriba-sinov ishlari**

samaradorligi” deb nomlangan bo‘lib, mazkur bobda tadqiqot ishining amaliy-eksperimental qismining formativ eksperimentini amalga oshirish maqsadida Unsurulma’oliy Kaykovusning pedagogik g‘oyalari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash metodikasining mazmuni keltirilgan.

Tadqiqot muammosi bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba natijalarini tahlil qilar ekanmiz, ikkilamchi nazorat ishlarini ham olib bordik. Monitoring davrini qayta tashkil etishdan maqsad eksperimental ish natijalarini tahlil qilish, tadqiqot vazifalarini hal etish samaradorligini va Kaykovusning pedagogik g‘oyalari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning sifat va miqdor darajalarini aniqlashdan iborat edi.

Oliy ta’lim muassasalari talabalarida Kaykovusning “Qobusnoma” asarida ilgari surilgan ma’naviy-axloqiy g‘oyalar asosida rivojlanish holatining sifat ko‘rsatkichlari matematik-statistik usul asosida qayta tahlil etildi va uchta ya’ni yuqori, o‘rta, past darajalarga ajratildi.

Yuqori daraja – Unsurulma’oliy Kaykovus yashagan davr, ijtimoiy-ma’naviy muhit, hamda uning hayoti va ijodi, pedagogik qarashlarini tahlil qila oladilar. Mutafakkirning “Qobusnoma” asari, uning boblarda aks etgan ta’lim-tarbiyaviy fikrlarni asoslab bera oladilar. Asarda ilgari surilgan, axloqiy qarashlar va shu bilan birga vatanparvarlik, insonparvarlik, bag‘rikenglik g‘oyalarni ko‘rsata oladilar.

O‘rta daraja – Unsurulma’oliy Kaykovusning hayoti va ijodi bo‘yicha ma’lumotga egalar, ammo u yashagan davr va ijtimoiy muhit borasidagi fikrlari chegaralangan. Mutafakkirning “Qobusnoma” asari borasida va unda ilgari surgan g‘oyalari bo‘yicha umumiy bilimga egadirlar. Ya’ni u nechta bobdan iboratligi, har bir bob nimalarni o‘z ichiga olganligi borasida aniq va to‘liq ma’lumotga ega emaslar.

Past daraja – Unsurulma’oliy Kaykovus hayoti va ijodi, u yashagan davr hamda ijtimoiy-ma’naviy muhiti borasida bilimga ega emaslar. Mutafakkirning hayoti va ijodi bo‘yicha o‘ta qisqa bilimga egadirlar. “Qobusnoma” asar Kaykovusning asari ekanligini biladilar, ammo asarning mazmun-mohiyati bo‘yicha bilimga ega emaslar.

Tajriba-sinov ishlari Namangan davlat pedagogika instituti, Buxoro davlat pedagogika instituti hamda Urganch davlat universiteti bazasida o‘tkazildi. Tajriba-sinov ishlariga 578 nafar talabalar jalb qilindi, shundan 278 nafar talabalar tajriba guruhlarida va 300 nafari nazorat guruhlarida qatnashishdi.

